

CHANG CHOLG‘USI IJROCHILIGIDA MAQOM LADLARINING INTONATSION TALQINI



Xaydarova Rozaxon

Yunus Rajabiy nomidagi O‘z.MMSI “Maqom cholg‘u ijrochiligi”
kafedrası professor v.b.

RozaxonX.@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21218087>

Annotatsiya. Mazkur maqolada chang cholg‘usi ijrochiligida maqom ladlarining intonatsion talqini masalalari tahlil qilingan. Maqom ladlarining nazariy asoslari, ularning badiiy-intonatsion xususiyatlari hamda chang cholg‘usida namoyon bo‘lish jihatlari yoritilgan. Shuningdek, maqom ladlarini o‘qitish jarayonida uchraydigan muammolar, ularning kelib chiqish omillari va bartaraf etish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda maqom ladlarini o‘zlashtirishda musiqiy eshituv, an’anaviy ustoz-shogird maktabi va amaliy ijrochilik tajribasining ahamiyati asoslab berilgan. Olingan natijalar chang ijrochiligi metodikasini takomillashtirish hamda maqom ta’limi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: chang cholg‘usi, maqom, maqom ladlari, intonatsion talqin, lad tizimi, maqom ijrochiligi, musiqiy eshituv, badiiy ifoda, ustoz-shogird an’anasi, milliy musiqa, maqom ta’limi, ijrochilik mahorati.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы интонационной интерпретации макомных ладов в исполнительстве на чанге. Освещаются теоретические основы макомных ладов, их художественно-интонационные особенности и специфика проявления в исполнительской практике на чанге. Анализируются проблемы, возникающие в процессе обучения макомному исполнительству, причины их возникновения и пути решения. Особое внимание уделяется роли музыкального слуха, традиции «устоз–шогирд» и практического исполнительского опыта в освоении ладово-интонационной системы макома. Полученные результаты могут быть использованы для совершенствования методики обучения игре на чанге и повышения эффективности макомного образования.

Ключевые слова: чанг, маком, макомные лады, интонационная интерпретация, ладовая система, исполнительство макома, музыкальный слух, художественная выразительность, традиция «устоз–шогирд», национальная музыка, макомное образование, исполнительское мастерство.

Abstract. This article examines the issues of intonational interpretation of maqom modes in chang performance. The theoretical foundations of maqom modal systems, their artistic and intonational characteristics, and their manifestation in chang performance are analyzed. The study also discusses the challenges encountered in teaching maqom performance, their causes, and possible solutions. Particular attention is paid to the role of musical hearing, the traditional master-apprentice method, and practical performance experience in mastering the modal-intonational nature of maqom. The findings contribute to the improvement of chang performance pedagogy and the enhancement of maqom music education.

Keywords: *chang instrument, maqom, maqom modes, intonational interpretation, modal system, maqom performance, musical hearing, artistic expression, master-apprentice tradition, national music, maqom education, performance skills.*

KIRISH

O'zbek xalqining ko'p asrlik musiqiy merosida maqom san'ati alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu san'at turi o'zining murakkab lad tuzilishi, nozik intonatsion xususiyatlari hamda yuksak badiiy-estetik mazmuni bilan ajralib turadi. Maqom ohanglarining shakllanishida tovushlar o'rtasidagi nozik pardaviy nisbatlar, bezak unsurlari, nola va qochirimlar muhim o'rin egallaydi. Shu bois maqom asarlarining mazmun-mohiyatini to'laqonli ochib berishda ijrochi cholg'ularning imkoniyatlari, ayniqsa, ularning lad va intonatsion ifoda vositalari alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi.

An'anaviy o'zbek cholg'ulari orasida chang o'zining keng diapazoni, jarangdor tembri va murakkab musiqiy tuzilmalarni ifodalash imkoniyati bilan ajralib turadi. Mazkur cholg'u maqom ansambllari tarkibida muhim o'rin egallab, maqom kuylarining lad xususiyatlari hamda ohangiy rivojlanishini yoritishda faol ishtirok etadi. Chang cholg'usining konstruktiv tuzilishi va ijro texnikasi maqom ladlarining o'ziga xos intonatsion jihatlarini namoyon etishda muayyan imkoniyatlar bilan bir qatorda ayrim ijroviy masalalarni ham yuzaga keltiradi.

Bugungi kunda O'zbekistonda milliy musiqa madaniyatini asrash, rivojlantirish va ilmiy jihatdan tadqiq etishga katta e'tibor qaratilmoqda¹. Maqom san'atining ta'lim tizimiga keng joriy etilishi, ijrochilik an'alarini takomillashtirish hamda ilmiy tadqiqotlar ko'lamining kengayishi ushbu yo'nalishdagi izlanishlarning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Xususan, maqomning lad-intonatsion tizimini turli cholg'ular misolida o'rganish milliy musiqashunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti va boshqa ixtisoslashgan ta'lim hamda ilmiy muassasalarda olib borilayotgan tadqiqotlar natijasida maqomshunoslik yangi bosqichga ko'tarilmoqda². Bu jarayonda maqom ijrochiligi, cholg'u amaliyoti va lad tizimining o'zaro bog'liqligini ilmiy asosda tahlil qilishga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda.

Shu nuqtai nazardan, chang cholg'usi ijrochiligida maqom ladlarining intonatsion talqinini o'rganish dolzarb ilmiy masalalardan biri sanaladi. Mazkur tadqiqot maqom ladlarining chang cholg'usida namoyon bo'lish xususiyatlarini, ularning badiiy ifoda vositalari bilan bog'liqligini hamda ijrochilik amaliyotida qo'llaniladigan usullarni tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari chang ijrochiligi metodikasini takomillashtirish, maqom ta'limi samaradorligini oshirish hamda milliy musiqiy merosni ilmiy asosda o'rganishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda maqom cholg'u ijrochiligini, xususan, chang ijrochiligini o'qitish jarayonida talabalar tomonidan maqom ladlarining intonatsion xususiyatlarini chuqur o'zlashtirish masalasi dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Aksariyat o'quvchilar nota matnini to'g'ri ijro etish va texnik ko'nikmalarni egallashga muvaffaq bo'lsalar-da, maqom ladlariga xos bo'lgan nozik ohang munosabatlari, intonatsion o'zgarishlar hamda badiiy ifoda vositalarini amaliy ijroda to'laqonli namoyon etishda muayyan qiyinchiliklarga duch keladilar. Natijada asarning tashqi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qaror (PQ-3391). — Toshkent, 2017-yil 17-noyabr. Mazkur qarorda milliy maqom san'ati xalqimizning noyob tarixiy-madaniy merosi sifatida e'tirof etilib, uni saqlash, ilmiy o'rganish, targ'ib etish va ijro amaliyotini rivojlantirishning ustuvor vazifalari belgilab berilgan.

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 02.09.2020 yildagi 536-son <https://lex.uz/docs/-4976746>;

musiqiy shakli saqlanib qolgan holda, maqomning ichki mazmuni, ruhiy ta'sir kuchi va milliy ohang tabiati yetarli darajada ochilmay qolishi kuzatiladi.

Mazkur holatning yuzaga kelishiga bir qator omillar sabab bo'lmoqda. Jumladan, ta'lim jarayonida nota yozuviga ortiqcha tayanish, an'anaviy ustoz-shogird tajribasining cheklanishi, maqom namunalarini tinglash va tahlil qilish ko'nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligi hamda lad nazariyasining ijro amaliyoti bilan uzviy bog'lanmagan holda o'qitilishi shular jumlasidandir. Ayniqsa, maqom ladlarining intonatsion tabiati chang cholg'usida o'ziga xos ijroviy vositalar orqali namoyon bo'lishini anglash va uni badiiy talqin bilan uyg'unlashtirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu munosabat bilan mazkur maqolada chang cholg'usi ijrochiligida maqom ladlarining intonatsion talqini, ularni amaliy ijro jarayonida ifodalashning o'ziga xos jihatlari hamda talabalarda maqom tafakkurini shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuvlar tahlil etiladi. Tadqiqot davomida maqom ladlarining chang cholg'usidagi badiiy ifodasi, ijrochilik amaliyotida uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari yoritilib, olingan natijalarning maqom ta'limi hamda milliy cholg'u ijrochiligini takomillashtirishdagi ahamiyati asoslab beriladi.

Maqom san'atining lad va intonatsiya masalalari Sharq musiqashunosligining eng muhim ilmiy yo'nalishlaridan biri sanaladi. Maqom tizimining nazariy asoslari, tovush qatorlari, pardalararo munosabatlar hamda ohanglarning shakllanish tamoyillari qadimdan musiqiy risolalarda keng yoritib kelingan. Ushbu manbalarda musiqiy tafakkurning nazariy va amaliy jihatlari o'zaro bog'liq holda talqin etilib, maqomlarning lad tuzilishi va ijroviy xususiyatlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Sharq musiqa nazariyasining yirik namoyandalaridan biri bo'lgan Abu Nasr Forobiy o'zining mashhur *Kitob al-musiqa al-kabir* asarida³ musiqiy tovushlar tizimini ilmiy asosda tahlil qilib, pardalar o'rtasidagi nisbatlar va ularning eshituv jarayonidagi ahamiyatini izohlab bergan. Olim tovush balandliklari o'rtasidagi munosabatlarni matematik va akustik mezonlar orqali asoslash bilan birga, ijrochilik amaliyotida uchraydigan nozik intonatsion farqlarning badiiy ifodadagi o'rnini ham ko'rsatib o'tadi.

Musiqiy tovush tizimi va lad nazariyasiga oid qarashlar keyinchalik Sharqning boshqa yirik olimlari tomonidan ham rivojlantirildi. Jumladan, Al-Kindiy, Abu Ali ibn Sino, Safiuddin al-Urmaviy, Qutbiddin Sheroziy hamda Abdurahmon Jomiylarning ilmiy merosida maqom tizimi, pardalar tuzilishi va musiqiy eshituv masalalari atroflicha yoritilgan⁴. Ushbu nazariy qarashlar keyingi davrlarda shakllangan maqom amaliyotining ilmiy poydevorini tashkil etgan.

XX asrda o'zbek musiqashunosligida maqomning lad-intonatsion xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar yangi bosqichga ko'tarildi. Bu borada Abdurauf Fitrat, Yunus Rajabiy, Viktor Belyayev, Tamara Vizgo va Ilyos Akbarovlarning ilmiy ishlari alohida ahamiyatga ega. Ularning tadqiqotlarida maqomlarning lad tuzilishi, intonatsion tabiati, ijrochilik an'analari hamda og'zaki musiqiy merosning o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan.

Xususan, Fitrat maqom san'atini avvalo jonli ijro an'anasi bilan bog'liq hodisa sifatida baholab, nota yozuvi maqomning barcha nozik intonatsion jihatlari to'liq aks ettira olmasligini qayd etadi. Bu qarash maqomni o'rganishda eshituv tajribasi va ijro amaliyotining ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

³ <https://archive.org/details/kitab-al-musiqa-al-kabir-pdfdrive>

⁴ Zufarov A.M. "O'zbek milliy musiqasi rivojida sharq allomalarning qo'shgan hissasi" // "Oriental Art and Culture №5, 2023. B.244-250

Maqomshunoslik rivojiga ulkan hissa qo‘shgan Yunus Rajabiy esa maqom namunalari to‘plash, notalashtirish va ilmiy tavsiflash jarayonida ularning lad va intonatsion xususiyatlariga alohida e‘tibor qaratgan. Uning “O‘zbek xalq musiqasi” hamda “Shashmaqom” turkumiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida maqom ohanglarining amaliy ijrodagi ko‘rinishlari, an‘anaviy talqin usullari va ustoz-shogird maktablarida shakllangan ijroviy mezonlar keng yoritilgan. Olim maqomni nafaqat nazariy tizim, balki avlodan-avlodga og‘zaki tarzda o‘tib kelayotgan murakkab musiqiy tafakkur mahsuli sifatida talqin qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI Bugungi kunda maqom ladlarining turli milliy cholg‘ular, jumladan chang cholg‘usidagi ifodasi, ularning intonatsion talqin xususiyatlari hamda ijrochilik amaliyotidagi namoyon bo‘lish shakllarini o‘rganish maqomshunoslik va cholg‘ushunoslikning dolzarb ilmiy masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Mazkur maqola aynan shu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlarni davom ettirishga qaratilgan.

V. Belyayev va T. Vizgo tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda maqom ladlarining o‘ziga xos tuzilishi hamda ularning Yevropa musiqasida keng qo‘llaniladigan major-minor tizimidan farqli jihatlari ilmiy asosda tahlil qilingan. Tadqiqotchilar maqom musiqasining lad tabiati temperatsiyalangan tovush tizimi bilan cheklanmasligini, aksincha, nozik pardaviy munosabatlar va eshituv tajribasiga tayanuvchi intonatsion jarayonlar orqali namoyon bo‘lishini qayd etadilar. Shu sababli maqom ijrosida tovushlarning nafaqat balandligi, balki ularning badiiy talqini va eshituviy qabul qilinishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqom ijrochiligi va uning pedagogik asoslarini o‘rganishga bag‘ishlangan zamonaviy tadqiqotlarda Is‘hoq Rajabov, Otanazar Matyoqubov, Ravshan Yunusov, Oqilxon Ibrohimov hamda Soibjon Begmatovlarning ilmiy ishlari alohida o‘rin tutadi. Ushbu tadqiqotlarda maqom ladlarini o‘qitish, ijrochilik ko‘nikmalarini shakllantirish va an‘anaviy musiqiy tafakkurni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Biroq maqom ladlarining intonatsion xususiyatlarini eshituv orqali anglash, ularni ijro jarayonida barqaror qo‘llash hamda badiiy ifoda bilan uyg‘unlashtirish masalalari hanuzgacha dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Ayniqsa, chang cholg‘usi ijrochiligida maqom ladlarining intonatsion talqinini shakllantirish jarayonida nafaqat texnik mahorat, balki rivojlangan musiqiy eshituv, maqom tafakkuri va an‘anaviy ijro uslublarini chuqur o‘zlashtirish muhim hisoblanadi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, mavjud o‘quv-uslubiy manbalarning aksariyatida texnik mashqlar va nota matni bilan ishlash masalalariga ko‘proq e‘tibor qaratilib, maqomning ichki intonatsion mohiyatini anglashga xizmat qiluvchi eshituviy tayyorgarlik yetarli darajada yoritilmagan.

Shunday qilib, maqom ldlari va ularning intonatsion xususiyatlari bo‘yicha nazariy manbalar yetarli darajada shakllangan bo‘lsa-da, ushbu bilimlarni chang cholg‘usi ijrochiligi amaliyotiga tatbiq etish, maqom ladlarining badiiy-intonatsion talqinini o‘qitish hamda talabalar musiqiy tafakkurida mustahkam shakllantirishga qaratilgan ilmiy-uslubiy tavsiyalarni yanada takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda. Mazkur holat tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilab beradi va uning ilmiy-amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Bugungi kunda maqom cholg‘u ijrochiligini, xususan, chang cholg‘usi ijrochiligini o‘qitish jarayonida eng murakkab va dolzarb masalalardan biri maqom ladlarining intonatsion xususiyatlarini to‘laqonli o‘zlashtirish bilan bog‘liqdir. Amaliy kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, talabalar chang cholg‘usida asarlarni texnik jihatdan aniq va ravon ijro etish ko‘nikmalarini egallagan bo‘lsalar-da, maqom ladlarining ichki ohang mantig‘i, intonatsion rivojlanishi va badiiy ifoda vositalarini chuqur his etish hamda ijroda namoyon qilishda muayyan qiyinchiliklarga duch keladilar.

MUAMMONING O`RGANILISHI Mazkur muammo, avvalo, maqom ladlarining murakkab tabiati va ularni chang cholg'usi imkoniyatlari orqali ifodalash jarayonining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Ma'lumki, maqom ladhari faqat tovushlar ketma-ketligidan iborat bo'lmay, balki ularning o'zaro intonatsion munosabatlari, tayanch pardalar tizimi va ohangiy harakat qonuniyatlari bilan belgilanadi. Ta'lim jarayonida esa ko'pincha nota matnini o'zlashtirishga ustuvor ahamiyat berilib, ladning ichki intonatsion mazmunini anglash masalasi ikkinchi darajaga tushib qolmoqda. Natijada ijro texnik jihatdan to'g'ri bo'lsa ham, maqomning badiiy-estetik mohiyati to'liq namoyon bo'lmaydi.

Shuningdek, nota yozuvining imkoniyatlari ham maqom ladlarining barcha nozik jihatlarini aks ettirish uchun yetarli emas. Nota asarining umumiy tuzilishi va tovush balandliklarini ifodalab bera olsa-da, maqomga xos bo'lgan intonatsion urg'ular, ohangning ichki harakati va an'anaviy ijro usullarining barcha qirralarini to'liq qamrab olmaydi. Shu sababli talabalar orasida maqomni eshituv orqali idrok etish, ladlarning xarakterini tinglab anglash va ularni ijroda badiiy talqin qilish ko'nikmalarini rivojlantirish zarurati ortib bormoqda.

Muammoning yana bir muhim tomoni an'anaviy ustoz-shogird maktabining maqom ta'limidagi o'rni bilan bog'liqdir. Tarixan maqom ijrochiligi tajribasi og'zaki-amaliy an'ana asosida shakllangan bo'lib, ladlarning intonatsion xususiyatlari, ohangiy yo'nalishlari va ijroviy usullari bevosita tinglash va takrorlash orqali o'zlashtirilgan. Zamonaviy ta'lim tizimida esa bu jarayon ko'proq nazariy va yozma manbalarga tayangan holda amalga oshirilayotgani sababli maqom ladlarining tabiiy intonatsion talqini ayrim hollarda yetarli darajada shakllanmay qolmoqda.

Yuqorida qayd etilgan omillar maqom ladlarining chang cholg'usi ijrochiligidagi intonatsion talqinini o'rganish nafaqat ijrochilik, balki pedagogik va musiqashunoslik nuqtai nazaridan ham muhim ilmiy masala ekanligini ko'rsatadi. Shu bois maqom ladlarini o'qitishning samarali usullarini ishlab chiqish, talabalarning eshituv madaniyatini rivojlantirish hamda chang cholg'usida maqomning badiiy-intonatsion xususiyatlarini to'laqonli namoyon etishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlarni takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

XULOSA Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, maqom ladlarining chang cholg'usi ijrochiligidagi intonatsion talqini masalasi zamonaviy musiqa ta'limining muhim va dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Maqom ladlarining o'ziga xos intonatsion tabiati, ohangiy rivojlanish qonuniyatlari hamda badiiy-ifodaviy imkoniyatlarini to'laqonli anglash va ijroda namoyon etish faqat texnik mahorat bilan emas, balki rivojlangan musiqiy eshituv, lad tafakkuri va an'anaviy ijrochilik tajribasi bilan uzviy bog'liq ekanligi aniqlandi. Maqom asarlarining badiiy mazmunini ochib berishda chang cholg'usining ifoda vositalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar davomida maqom ladlarini o'qitish jarayonida nota matniga ortiqcha tayanish, eshituv asosidagi mashg'ulotlarning yetarli darajada qo'llanilmasligi hamda an'anaviy ijro tajribasidan foydalanish imkoniyatlarining cheklanishi talabalarning maqom ladlarini chuqur anglashiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ma'lum bo'ldi. Natijada maqomning ichki intonatsion mantig'i, lad xarakteri va badiiy-estetik mazmuni ayrim hollarda to'laqonli ifodalanmay qolmoqda.

Umuman olganda, maqom ladlarining chang cholg'usi ijrochiligidagi intonatsion talqinini ilmiy va amaliy jihatdan o'rganish milliy musiqashunoslik hamda ijrochilik pedagogikasining muhim vazifalaridan biri bo'lib, uning natijalari maqom ta'limi sifatini oshirish, professional ijrochilar tayyorlash va o'zbek milliy musiqa merosini asrab-avaylash hamda rivojlantirishga munosib hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Prezident Sh.Mirziyoyev “Qarorlar Konsepsiyasi” inernet sahifasi.
2. O‘zbekiston milliy entiklopediyasi I-jild. Toshkent-2000.
3. N.A.Muslimov “Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik” o`quvslubiy majmua. Toshkent: 2016.
4. Zufarov A.M. “O‘zbek milliy musiqasi rivojida sharq allomalarining qo‘shgan hissasi” // "Oriental Art and Culture №5, 2023.
5. Yu. Rajabiy. Muzika merosimizga bir nazar. Toshkent, 1978.
6. Matyoqubov O. Buxoro Shashmaqomi. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2018.